

**XURSHID DO'STMUHAMMAD ASARLARIDA INSON RUHIYATI
MANZARALARI**

(“Ko‘z qorachig‘idagi uy” hikoyasi misolida)

Pormonov Fayozbek Rahmonberdi o‘g‘li

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti,

Samarqand filiali 3-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: Nasirov Azimidin Normamatovich,

filologiya fanlari doktori, professor

Annotatsiya

Maqolada Xurshid Do'stmuhammad hikoyalarida inson ruhiyati, sukunat va shovqin o'rtasidagi ichki ziddiyatlar badiiy-falsafiy jihatdan tahlil qilinadi. Asarda qahramonlarning mutlaq osoyishtalik izlab, ruhiy bo'shliq va ichki iztirobga duch kelishi yoritiladi. Muallif ong oqimi, ramziy obrazlar hamda psixologik tasvir vositasida zamonaviy insonning mavjudlik muammolarini ochib beradi. Choygum, suv va tovush obrazlari orqali hayotning harakat, vaqt va tafakkur bilan bog'liqligi ifodalanadi. Hikoya inson uchun sukunat va shovqin muvozanati zarurligini anglatadi. Unda tashqi va ichki borliqning murakkab munosabati falsafiy ruhda talqin etiladi.

Kalit so'zlar: psixologizm, ruhiyati, sukunat, shovqin, ong oqimi, psixologik tasvir, ramziylik, obrazlilik, mavjudlik, falsafiylik, konsepsiya.

**В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ ХУРШИДА ДОСТМУХАММАДА
ПЕЙЗАЖИ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО ДУХА**

(На примере рассказа «Дом в глазном яблоке»)

Пормонов Фаёзбек Рахмонберди оғлу

Тошкентский международный университет Кимё,

Самаркандский филиал, студент 3 курса

*Научный руководитель: Насиров Азимидин Нормаматович,
доктор филологических наук, профессор*

Аннотация:

В статье анализируется человеческая психика, внутренние конфликты между тишиной и шумом в рассказах Хуршида Достмухаммада с художественно-философской точки зрения. Работа освещает поиск героями абсолютного покоя и столкновение с духовной пустотой и внутренними страданиями. Автор раскрывает проблемы современного человеческого существования посредством потока сознания, символических образов и психологической образности. Образы чайника, воды и звука выражают связь жизни с движением, временем и мыслью. Рассказ символизирует потребность человека в балансе между тишиной и шумом. Он интерпретирует сложные взаимоотношения между внешним и внутренним существованием в философском ключе.

Ключевые слова: психологизм, психика, тишина, шум, поток сознания, психологический образ, символизм, образность, существование, философия, концепция.

IN THE WORKS OF KHURSHID DOSTMUHAMMAD

LANDSCAPES OF THE HUMAN SPIRIT

(On the example of the story “The House in the Eyeball”)

Pormonov Fayozbek Rahmonberdi oglu

Tashkent International University of Chemistry,

Samarkand Branch 3rd year student

Scientific advisor: Nasirov Azimudin Normamatovich,

Doctor of Philology, Professor

Abstract: The article analyzes the human psyche, internal conflicts between

silence and noise in the stories of Khurshid Dostmuhammad from an artistic and philosophical perspective. The work highlights the heroes' search for absolute peace and encountering spiritual emptiness and inner suffering. The author reveals the problems of modern human existence through the use of stream of consciousness, symbolic images, and psychological imagery. The images of teapot, water, and sound express the connection of life with movement, time, and thought. The story symbolizes the need for a balance of silence and noise for a person. It interprets the complex relationship between external and internal existence in a philosophical spirit.

Keywords: psychologism, psyche, silence, noise, stream of consciousness, psychological image, symbolism, imagery, existence, philosophy, concept.

O'zbek hikoyachiligining taraqqiyotida o'ziga xos o'rin egallagan iste'dod sohiblaridan biri Xurshid Dostmuhammadir. Adibning nasriy asarlarida, roma, qissa, hikoyalarida inson qismati, ruhiy istiroblari talqining etakchilik qiladi. Zamonaviy o'zbek nasrida inson ongining ichki dramatzimini, sukunat va shovqin dialektikasini badiiy-falsafiy talqin etgan murakkab va ko'p qatlamli matn sifatida namoyon bo'ladi. Asar voqeabandlikdan ko'ra ko'proq psixologik oqimga, ya'ni ongning ichki harakatini tasvirlashga qurilgan bo'lib, unda tashqi reallik asta-sekin ichki reallikka singib ketadi. Shu jihatdan hikoya an'anaviy realizmdan ko'ra modernistik estetikaga yaqin turadi. Adabiyotshunos S.Quronov qayd qilganidek: "Sharq va G'arb madaniyatlari yaqinlashuvi natijasida shakllanayotgan tamoyillar, olamni xaos deya qabul qiliuvchi postmodernism yo'nalishining qisman ta'siri bugungi kun nasrida sezilarli darajada ko'zga tashlanmoqda" [1, 22-bet].

Asarning boshlanishidayoq "ko'z qorachig'i" obrazining markazga chiqarilishi bejiz emas. Bu detal nafaqat tasviriy vosita, balki butun matnning semantik markazidir. Qorachiq - insonning ichki olami, ong tubi, hatto mavjudlikning metaforik modeli sifatida talqin qilinadi. Qahramonning qarashi tashqi obyekt - toshoynadan ichkariga, ya'ni o'z ongiga qarab siljiydi. Shu tariqa

hikoya tashqi borliqni emas, balki ichki borliqni “ko‘rish” jarayoniga aylanadi. Bu esa matnda introspektiv tahlilning ustuvorligini belgilaydi. Hikoyaning asosiy dramatik kuchi sukunat va shovqin o‘rtasidagi qarama-qarshilikda mujassam. Sohib va Sohiba obrazi orqali yozuvchi shahar sivilizatsiyasining shovqinidan charchagan, mutlaq osoyishtalikni orzu qilgan inson tipini yaratadi. Ularning intilishi tabiiydek tuyuladi: tinchlik, xotirjamlik, osoyishtalik. Ammo asar davomida muallif bu orzuning illusor xarakterini fosh etadi [2, 45-bet].

Chunki hayotning o‘zi harakat, tovush, jarayon bilan belgilanadi. Shovqin bu faqat tashqi bezovtalik emas, balki tiriklikning belgisi, mavjudlikning ajralmas sharti sifatida talqin qilinadi. Qahramon mutlaq sukunat makoniga kirgach, kutilgan osoyishtalik o‘rnini g‘alati ichki bezovtalik egallaydi. Bu yerda yozuvchi nihoyatda nozik psixologik kuzatuvni amalga oshiradi: tashqi shovqin yo‘qolgach, inson ongida ichki “shovqin” kuchayadi. Choygumdagi suvning qaynashi, bolalar chanasi, arra tovushi, samolyot shovqini bularning barchasi real voqelikdan ko‘ra ongning mahsuli sifatida idrok etiladi. Ya’ni, muallif ong oqimi usulidan foydalanib, inson tafakkurining uzluksiz va tartibsiz harakatini badiiy shaklga soladi.

Ayniqsa, choygum obrazi alohida e’tiborga loyiq. U oddiy maishiy detal bo‘lishiga qaramay, asarda markaziy semantik tugun vazifasini bajaradi. Choygum ostidagi zaif olov, suvning asta qizishi va tovush chiqarishi bularning barchasi vaqtning oqimi, fikrning harakati va ongning “uyg‘onishi” bilan parallel tasvirlanadi. Agar sukunat vaqtni “to‘xtatsa”, shovqin uni yana harakatga keltiradi. Demak, vaqt va shovqin o‘zaro chambarchas bog‘liq tushunchalar sifatida talqin qilinadi. Asarda suv obrazining paydo bo‘lishi esa psixologik tanglikning kulminatsion nuqtasini bildiradi. Suvning toshishi, hamma narsani bosib ketishi bu qahramon ongida yig‘ilib qolgan bosimning, vahimaning va nazoratdan chiqqan fikrlar oqimining ramziy ifodasidir.

Bu epizodda real va irreal qatlamlar butunlay qorishib ketadi, natijada o‘quvchi ham qahramon bilan birga ongiy inqiroz holatini boshdan kechiradi. Hikoya yakunida yana sukunat va shovqin o‘rtasidagi murakkab munosabatga

qaytiladi. Muallifning “tarix shovqinlar almashinuvi” degan fikrga yaqin xulosasi asarning falsafiy umumlashmasidir. Bu yerda shovqin faqat akustik hodisa emas, balki har qanday harakat, o'zgarish, fikr va hayot jarayonining umumiy nomi sifatida talqin qilinadi. Sukunat esa bu jarayonning to'xtashi, ya'ni mavjudlikning chegarasi sifatida namoyon bo'ladi.

Yozuvchi ushbu hikoya orqali insonning tashqi olamdan qochib, mutlaq osoyishtalik izlashga bo'lgan urinishini tanqidiy yoritadi. Asar shuni anglatadiki, inson tabiatiga zid bo'lgan mutlaq sukunat uni ruhiy bo'shliq va ichki iztirobga olib keladi. Haqiqiy hayot esa muvozanatda shovqin va sukunatning uyg'unligida namoyon bo'ladi. Shu ma'noda hikoya nafaqat psixologik, balki chuqur falsafiy mazmunga ega bo'lib, zamonaviy insonning mavjudlik muammolarini badiiy talqin etgan muhim asar sifatida baholanishi mumkin.

Muallif o'quvchiga shuni demoqchiki, inson ko'pincha hayotdagi shovqin, tashvish va harakatdan charchab, sukunatni najot deb o'ylaydi. Ammo aslida bu sukunat tabiiy muvozanat darajasidan oshsa, u osoyishtalik emas, balki bo'shliq va ruhiy halokatga aylanadi. Hikoyadagi Sohib va Sohiba aynan shu xatoga yo'l qo'ygan obrazlar sifatida berilgan ular hayotning tabiiy “shovqin”idan qochib, oxir-oqibat hayotning o'zidan uzoqlashadi. Yozuvchi o'quvchiga bevosita hayotning shovqinidan qochmaslikni, chunki aynan shu shovqin insonning tirikligining, fikrlashining va mavjudligining isboti ekanligini anglashga imkon beradi.

Xullas, o'zbek adabiyotining etuk vakllaridan biri, Xurshid Do'stmuhammad hikoyalarida insonni anglash, olam va odam munosabatlarini teran his qilish, shaxs va jamiyat oldidagi vazifasini anglash kabi qator falsafiy tushunchalar matnga singdirib yuborilgan [5, 48-bet]. Matndan anglashiladigan qarashlarni tushunish har bir kitobxondan fikrlashni, his qilishni va anglash yo'lini tanlash zarurligini ifodalagan.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Куронов С. Ифода ва ифодавийлик. Рисола. – Тошкент, Akademnashr, 2013. – 88 бет.

2.Boboxonov M. Hozirgi o'zbek romanlari strukturasida psixologizm muammosi. Fil.fan.dok.diss., aftoreferat. – Samarqand: 2023. B. – 72

3.Qurbonova F. Xurshid Do'stmuhammad prozasining poetikasi. Fil.fan.fal.dok.diss. – Qarshi, 2024.

4.Xurshid Do'stmuhammad. Jajman. Qissalar va hikoyalar. – Toshkent: Sharq, 1995. – 320 bet.

5.Nasirov A. O'zbek romanchiligi. Darslik. – Samarqand, SamDU nashri, 2023. – 208 bet.